

# Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Elektron kutubxona” interaktiv xizmatining reglamanti

## 1. Xizmat ta’rifi

### 1.1. Xizmatning nomlanishi

Qisqa nomi: “Elektron kutubxona”.  
Kengaytirilgan nomi: Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti orqali xizmat ko‘rsatilayotgan “Elektrok kutubxona” interaktiv xizmati.

### 1.2. Xizmat natijasi

Foydalanuvchi institutda mavjud elektron resurslarning bibliografik yozuvlari bilan tanishishi hamda ruxsat berilgan elektron resurslarni ko‘chirib olishi mumkin.

### 1.3. Xizmat ko‘rsatuvchi organlar

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

### 1.4. Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar

Talabalar, professor-o‘qituvchilar, ota-onalar, institut rahbariyati.

### 1.5. Bajarilish muddati

“Elektron kutubxona” resurslari interaktiv xizmat bazasiga joylashtiriladi.

## 2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

### 2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday fuqaroga quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

1. Mavjud elektron resurslarning bibliografik yozuvlari.

### 2.2. Batafsil ma’lumot olish

Institut axborot resurs markazi orqali:  
Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti ([www.tkti.uz](http://www.tkti.uz)) ning interaktiv xizmatlar bo‘limiga joylashtiriladi.

### 2.3. So‘rovnoma bo‘yicha ma’lumot olish

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz ma’lumot olish mumkin.  
Elektron pochta orqali: dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 17:00 gacha.

### 2.4. Xizmat ko‘rsatish manzili hakida ma’lumot olish

Toshkent shahar Shayxontohur tumani A.Navoiy ko‘chasi 32 uy

## 3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

### 3.1. Ish vaqtlari

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz foydalanish mumkin.

#### **4. Xizmat ko'rsatish tartibi**

##### 4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar

Interaktiv xizmatdan foydalanganda foydalanuvchi tomonidan qo'shimcha hujjat talab etilmaydi.

##### 4.2. Xizmat to'lovi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

##### 4.3. Interaktiv xizmat ko'rsatish bosqichlari

Mavjud elektron resurslar bo'yicha ma'lumotlarni kiritish mexanizmi institut ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, mas'ul xodimlarga beriladi va ular tomonidan interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga 1 ish kuni mobaynida joylashtiriladi. Interaktiv davlat xizmati ma'lumotlar bazasini texnik ta'minoti ATM zimmasiga yuklatiladi.

##### 4.4. Rad etish sabablari

Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda interaktiv xizmat ko'rsatish dasturi o'rnatilgan serverda profilaktik ishlar o'tkazilayotgan bo'lishi mumkin